

## FRANSUZ TILI IDIOMALARI HAQIDA

Isroilova Manzura Jamolovna

Termiz davlat universiteti fransuz tili o'qituvchisi

[manzurajamolovna@gmail.com](mailto:manzurajamolovna@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7633104>

**Annotatsiya:** Frazeologiya tilshunoslik fanining jadal rivojlanayotgan tarmog'i bo'lib, tadqiqotchilarning frazeologik birliklarning semantik va kommunikativ xususiyatlarini va ularning funksiyalarini o'rganishga qiziqishi o'zgarishsiz qolmoqda. Frazeologik birliklar o'zlarining ma'lumot qobiliyati va ifodaliligi bilan ajralmas bo'lganligi sababli, ular turli xil matnlarda alohida o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** Idiotisme animalier, Idiotisme botanique, Idiotisme corporel, Idiotisme chromatique, Idiotisme gastronomique, Idiotisme numérique, Idiotisme toponymique, Idiotisme vestimentaire, Idiotisme artisanal ou ouvrier, obrazli frazeologik birliklar.

### THE IDIOMS OF THE FRENCH LANGUAGE

**Abstract:** Phraseology is a rapidly developing branch of linguistics, and researchers' interest in studying the semantic and communicative properties of phraseological units and their functions remains unchanged. Phraseological units are indispensable for their informativeness and expressiveness, so they occupy a special place in various texts.

**Key words:** Idiotisme animalier, Idiotisme botanique, Idiotisme corporel, Idiotisme chromatique, Idiotisme gastronomique, Idiotisme numérique, Idiotisme toponymique, Idiotisme vestimentaire, Idiotisme artisanal ou ouvrier figurative phraseological units.

### ОБ ИДИОМАХ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация:** Фразеология является бурно развивающейся отраслью языкознания, и неизменным остается интерес исследователей к изучению семантических и коммуникативных свойств фразеологизмов и их функций. Фразеологизмы незаменимы своей информативностью и выразительностью, поэтому занимают особое место в различных текстах.

**Ключевые слова:** Идиотизм анималистический, Идиотизм ботанический, Идиотизм телесный, Идиотизм хроматический, Идиотизм гастрономический, Идиотизм нумерический, Идиотизм топонимический, Идиотизм вестиментарный, Идиотизм кустарный или образный.

### KIRISH

Frazeologiyaga oid kitoblar soni, iboralar (umumiy yoki ixtisoslashtirilgan) lug'atlar soni va ushbu mavzu bo'yicha ko'plab konferensiyalar bu muammoning qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Turli xil iboralarning tasnifi toifalardan kelib chiqadi. Tilshunoslikda FB liklar chegarasini ko'rsatishda turli qarashlar mavjud. Jumladan, maqol, aforizmlar, idioma, aforizmlar ham Fb ning tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinadi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Jeffri NUNBERG, xuddi Adam MAKKAI singari FB tarkibiga kiruvchi idiomalarni, ikki turdaga bo'ladi: tarkibidagi so'zlarning har biri ma'noga ega bo'lgan va butun qismlari faqat bitta ma'noga ega bo'lgan idiomalar. Adam MAKKAI kodlash idiomasi: tinglovchiga mazmunli kombinatsiyani taqdim etadi va dekodlash idiomasi: rotsional bilishni talab etadi Odatda ikkinchi tipga kiruvchilari ko'plab savollarga javob berish lozimligini ko'rsatadi. Bunday idiomalarni asl mohiyatini, ma'nosini bilish uchun lingvokulturologik, semantik tadqiq etish zarur hisoblanadi.

Fransuz lingvisti Alain REY gallsizm-o'zlashmalarni ham turg'un idioma ekanligini ta'kidlaydi, masalan: zamonaviy grek tiliga fransuz tildan kirib kelgan « γαρσόνι » (garsóni) – garçon-bola, ofitsiant, « κρουασάν » (kruasán) - un croissant- qandolatchilik maxsuloti.

### TADQIQOT NATIJALARI

Fransuz tilida idiomalarning zoonimli, kiyim nomlari, tabiat hodisalari bilan bo'g'liq bo'lganlari, oziq-ovqat nomlari orqali ifodalanuvchi *Idiotisme animalier*, *Idiotisme botanique*, *Idiotisme corporel*, *Idiotisme chromatique*, *Idiotisme gastronomique*, *Idiotisme numérique*, *Idiotisme toponymique*, *Idiotisme vestimentaire*, *Idiotisme artisanal ou ouvrier* kabi semantik maydonlari farqlanadi.

### MUHOKAMA

Quyida dastlabki 3 semantik maydonni ko'rib chiqamiz:

- **Idiotisme animalier** (hayvon nomlari bilan bog'liq idiomalar) hayvonga xos fe'l-atvor obrazli tarzda voqea-hodisa, inson(bevosita hayvon uchun ham) hatti-harakati, xulqini ifodalash uchun ishlatiladi: *avoir des ailes*-(so'zma-so'z: qanoti bor bo'lmoq)-o'zini(qushdek) yingil his qilmoq; *voler de ses propres ailes*-(so'zma-so'z: o'zining qanoti bilan uchmoq)- mustaqil bo'lmoq; *blanc-bec*-(so'zma-so'z: oq tumshuq)-o'ziga haddan ziyod ishongan yosh yigit; *être bête* (*à en manger du foin*)-juda soda, go'l bo'lish; *quelle sale bête !*-(so'zma-so'z: qanday iflos hayvon)-dushman, yomon xulqli shaxs, shuning bilan birga tajovuzkor hayvonni ham ifodalaydi; *doux comme un agneau*(so'zma-so'z-qo'zichoqdek muloyim)-muloyim kishi(qo'y og'zidan cho'p olmagan); *avoir un regard d'aigle*-burgut ko'zli, ko'zi o'ta o'tkir; *c'est un aigle*-har tomonlama mukammal shaxs; *âne rouge*(so'zma-so'z:qizil eshak)-eshakday qaysar; *brider l'âne par la queue*(so'zma-so'z: eshakni dumidan jilovlamoq)-ishni teskarisini qilmoq; *passer du coq à l'âne*(so'zma-so'z: xo'rozdan eshakka o'tmoq)-biri bo'g'dan biri tog'dan gapirmoq; *avoir un estomac d'autruche*(tuyaqush oshqazoni bor bo'lmoq)-har yegan narsani oson hazm qilmoq; *baleine*(kit)-semiz odam; *petite caille*(kichkina bedana)-yosh hurliqo; *tout droit sorti de la bouche du cheval*(so'zma-so'z: tog'ridan-to'g'ri o'tning og'zidan chiqqan)-ishonchli manbadan olingan ma'lumot; *entre chien et loup*(so'zma-so'z:it va bo'ri o'rtasida)-tunda, *être comme chien et chat*-it-mushuk bo'lmoq, qiyin vaziyatda tortishmoq va hokazo.
- **Idiotisme botanique** (tabiat bilan bog'liq bo'lgan idiomalar) insonga, voqelikka hos bo'lgan hatt-harakat, vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi: *l'arbre cache la forêt*(so'zma-so'z:daraxt o'rmonni yashiradi)-bir detal butun tavsilotni o'zida jam etadi; *avoir un cœur d'artichaut*(so'zma-so'z :artisho(karam navi) yuragili bo'lmoq-sevgida sadoqatli bo'lmoq; *coup de bambou*(so'zma-so'z:bambuk zarbasi)-1)to'saddan charchash; 2)issiq urishi; *manger son blé en herbe*(so'zma-so'z:bug'doyini o't ustida yemoq)-mol-mulkini isrof qilmoq, sovurmoq; *bœuf-carotte*(so'zma-so'z: mol go'shti-sabzi)-politsiyachilar(fransuzlarda); *bout de chou*(so'zma-so'z:karam oxiri/adog'i)-kichkintoy, bolakay; *faire chou blanc* (so'zma-so'z:oq karam yetishtirmoq)-muvaqqiyatsizlikka uchramoq; *presser le citron*(s.s:limonin siqmoq)-insonni haddan tashqari ezmoq(limonday siqib suvini ichmoq); *filer un mauvais coton*(ss:yomon paxta yigirmoq)-1)sog'ligi yomonlashmoq 2) obro'siga putur yetmoq; *mettre du beurre dans les épinards*(ss:ismaloqqa saryog' surmoq)-vaziyatni yingillashtirmoq; *être fleur bleue*(ss:ko'k gul bo'lmoq)-1)juda romantik bo'lmoq, 2)sodda, go'l; *être haut comme trois pommes*(ss: 3 olmadek baland bo'lmoq)-pakana bo'lmoq; *être rouge comme une tomate* (pomidordik qizil bo'lmoq) - yuzi qip-qizil bo'lmoq (uyatdan, sovuqdan; *croquer la pomme*(olma tishlamoq)-vasvasaga berilmoq va hokazolar.

- **Idiotisme corporel** (inson tana a'zolari nomlari bilan ifodalanuvchi idiomalar)-tabiat voqea-hodisalari, insonning turli vaziyatdagi holatlarini obrazli ifodalashda ishlatiladi: *à bras-le-corps*(so`zma-so`z:qo`lu-tana)-o`zbek tilidagi muqobili *qo`lu-oyoq*(oyoq-qo`l), *butun tana*; *couper bras et jambes*(qo`l-oyog`ini kesmoq)-barcha imkoniyatlarni yo`qqa chiqarmoq; *la bouche en cœur*-yurakdan gapirish (ba`zida soxta zukolik bilan gapirishni ham ifodalaydi); *avoir des bouches à nourrir*-kimgadur qaram oila, *faire la fine bouche*(og`zini ado/tamom qilmoq)-qiyin vaziyatda bo`lmoq; *motus et bouche cousue*-lom-mim demaslik, sukut saqlamoq; *tendre les bras vers quelqu'un*-yordam qo`lini uzatmoq, *couper les cheveux en quatre* (so`zma-so`z - sochlarni 4ga bo`lmoq) - keraksiz holda biror narsani murakkablashtirish, tanlashda mujmallashmoq; *mon cœur se glace* (ss: yuragim muz)-juda xavotir, *qo`rquvdaman*; *avoir le cœur au bord des lèvres*(ss: yuragi lablari oldida bo`lmoq)-yuragi ko`tarilmoq; *la main sur le cœur*-qo`li ko`ksida(hurmatda); *laver le cerveau* -miyasidan o`chirib tashlamoq, unutmoq; *avoir le gros cou*-mag`rur bo`lmoq va boshqalar.

### XULOSA

Bu semantik maydonarni tashkil etuvchi FB lar juda ko`p bo`lib ular ichida idiomalar obrazlilikni ifodalashi bilan alohid ahamiyatga ega hisoblanadi. Ferdinand De SAUSSURning fikricha so`z va uning ma`nosi o`rtasidagi bo`g`liqlikni bilish, kommunikatsiya jarayoniga ularni kiritishda idiomatik vositalar muhim, idiomaga xos xususiyatning yo`qligi sintagmatik darajada amalga oshadi va paradigmatic mulohazalarda o`z izini yo`qotadi, ya`ni, ba`zi idiomalarda ma`lum bir ifodali birikmalarda ma`no aniq bo`lishi mumkin, boshqalarida butun kombinatsiyada ma`no-mazmun anonim tarzda bo`ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Авалиани, Ю.Ю. Семантическая структура слов-компонентов и семантическая структура фразеологических единиц Текст.: бюллетен по фразеологии / Ю.Ю. Авалиани. - Самарканд, 1972. - № 1. - С. 15-17.
2. Арутюнова П., Н.Д. Предложение и його смысл: логико-семантический проблемы Текст. / Н.Д. Арутюнова / АН СССР, Ин-т языкознания. М.: Наука, 1976.-383 с.
3. Гак, В.Г. О структурно-семантических группах во французской фразеологии Текст. / В.Г. Гак. ИЯШ, 1959. - № 5. - С. 21-26.
4. Marouzeau, J. Aspects du français Texte. / J. Marouzeau. Paris, 1950. -215 p.
5. Маматов А. Лексик интеграция асосида фразеологизмларнинг шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. №6. –29-33 бетлар.
6. Guiraud, P. La semantique Texte. / P. Guiraud. Paris: Presse Universitaire de France, 1964.-126 p
7. Isroilova M. “ Phraseological Units Classification Expressed Through Colors in French Printed Media” - <https://doi.org/10.47191/10.47191/rajar/v8i12.14>
8. Lafleur, B. Dictionnaire des locutions idiomatiques françaises Texte. / B. Lafleur. Ottawa, Canada, Bibliotheque nationale du Quebec (Duclot), 1979.
9. Grand Robert de la langue française. Dictionnaire alphabetique et analogique de la langue française Texte. 2-eme ed. - Paris: Robert, 1986. - En 9e volume entierement revue et enrichie par Alain Rey.
10. <https://fr.wikipedia.org>
11. <http://books.google.com>